

GLOBALLASHUV VA URBANIZATSIYA SHAROITIDA OILA INSTITUTINING TRANSFORMATSIYASI

Muxammadiyeva Oliya Narzullayevna, Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti dotsenti, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

TRANSFORMATION OF THE FAMILY INSTITUTION IN THE CONDITIONS OF GLOBALISATION AND URBANIZATION

Muhammadieva Oliya Narzullayevna, Associate Professor, Termez State University of Engineering and Agrotechnology, Doctor of Philosophy (PhD)

ТРАНСФОРМАЦИЯ ИНСТИТУТА СЕМЬИ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ И УРБАНИЗАЦИИ

Мухаммадиева Олия Нарзуллаевна, доцент Термезского государственного университета инженерии и агротехнологий, доктор философии по философским наукам (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada globallashuv va urbanizatsiya jarayonlarining oila institutiga ko'rsatayotgan ijtimoiy-psixologik ta'siri, oilaning struktura va funksiyalaridagi transformatsion o'zgarishlar, qadriyatlar tizimidagi siljishlar, gender rollarining qayta talqini va individualist yondashuvlarning kuchayishi tizimli tarzda tahlil qilingan.


Kalit so'zlar: globallashuv, urbanizatsiya, oila instituti, strukturaviy o'zgarish, qadriyatlar tizimi, gender rollari, individualizm, ijtimoiy transformatsiya.

Abstract: This article systematically analyzes the socio-psychological impact of globalization and urbanization processes on the institution of the family, transformational changes in the structure and functions of the family, shifts in the value system, reinterpretation of gender roles, and the strengthening of individualistic approaches.

Keywords: globalization, urbanization, family institution, structural change, value system, gender roles, individualism, social transformation.

Аннотация: В данной статье систематически анализируется социально-психологическое влияние процессов глобализации и урбанизации на институт семьи, трансформационные изменения в структуре и функциях семьи, сдвиги в системе ценностей, переосмысление гендерных ролей и усиление индивидуалистических подходов.

Ключевые слова: глобализация, урбанизация, институт семьи, структурные изменения, система ценностей, гендерные роли, индивидуализм, социальная трансформация.



<https://orcid.org/0009-0009-3249-1012>

e-mail:

Muxammadieva77@mail.ru

KIRISH. Oila har qanday jamiyatning asosiy tayanchi va ijtimoiy barqarorlikning muhim omilidir. O‘zbekistonda ham oila institutining tarixiy, ma’naviy va tarbiyaviy ahamiyati doimo yuksak baholanib kelgan. An’anaviy oilaviy qadriyatlar – hurmat, itoat, mehr-oqibat, o‘zaro mas’uliyat va birdamlik avloddan avlodga o‘tib, jamiyatning ijtimoiy tuzilmasida muhim o‘rin egallab kelmoqda. Shu bilan birga, mustaqillik yillarda mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning jadallahushi, aholining turmush tarzidagi o‘zgarishlar, gender tengligi, ta’lim va bandlik imkoniyatlarining kengayishi oilaviy munosabatlarga ham o‘z ta’sirini o‘tkazmoqda. Ayni paytda, globallashuv va urbanizatsiya jarayonlari O‘zbekiston oilalarining tuzilmasi, rollari va ichki ijtimoiy aloqalariga sezilarli o‘zgarishlar kiritmoqda. Bu o‘zgarishlar ijobiy imkoniyatlar bilan birga, ma’lum ijtimoiy-psixologik muammolarni ham yuzaga chiqarayotgani kuzatilmoqda.

Bugungi kunda yurtimizda urbanizatsiya darajasi ortib borayotgan bir paytda, yirik shaharlarda yashovchi oilalar soni ham ko‘paymoqda. Qishloqdan shaharga migratsiya oqibatida yuzaga kelayotgan yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar, turmush tarzining o‘zgarishi, mehnat migratsiyasi va axborot texnologiyalarining keng tarqalishi natijasida an’anaviy oila modeli asta-sekin transformatsiyalanmoqda. Masalan, avvallari keng tarqalgan ko‘p avlodli oilalar o‘rnini bugungi kunda asosan yadro (ota, ona, farzandlar) oilalari egallamoqda. Bu esa o‘z navbatida ota-onalarning tarbiyaviy roliga, oila a’zolari o‘rtasidagi psixologik yaqinlik va mas’uliyat taqsimotiga yangi yondashuvlarni talab qilmoqda[1].

Shu bois, bugungi maqolada O‘zbekiston sharoitida oila institutining globallashuv va urbanizatsiya fonidagi transformatsiyasi ilmiy tahlil qilinadi. Bu jarayonning asosiy tendensiyalari, ijtimoiy-psixologik oqibatlari va istiqbolli yo‘nalishlari aniqlanadi. Ilmiy yondashuv asosida olib borilgan tahlillar zamonaviy oila institutini chuqur anglash, uni qo’llab-quvvatlash va muammolarni hal qilishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHЛИLI VA METODOLOGIYA. Oila instituti har doim jamiyatning ijtimoiy strukturasida asosiy birlik sifatida qaralgan. Bu institutning barqarorligi va

funksional samaradorligi ko‘p jihatdan jamiyatdagি siyosi, iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy omillar bilan chambarchas bog‘liq. So‘nggi o‘n yilliklarda globallashuv va urbanizatsiya jarayonlari oilaviy munosabatlarning mohiyatiga, tuzilmasiga hamda funksional mexanizmlariga chuqur ta’sir ko‘rsatmoqda. Mazkur bo‘limda bu masalaning nazariy va amaliy asoslari xalqaro va mahalliy olimlar tadqiqotlari asosida tahlil qilinadi.

Oila institutining o‘zgarish jarayonlarini tahlil qilgan mashhur sotsiologlar A.Giddens va U.Bek zamonaviy jamiyatda oila barqaror ijtimoiy institut emas, balki doimiy o‘zgaruvchan, adaptiv tizim sifatida shakllanib borayotganini ta’kidlaydi. A.Giddens “pure relationship” (sof munosabatlar) konsepsiyasini ilgari surib, zamonaviy oilalarda hissiy yaqinlik va individual ehtiyojlarning asosiy mezon bo‘layotganini ko‘rsatadi. Bu esa o‘z navbatida an’anaviy rollar va majburiyatlarning qayta ko‘rib chiqilishiga olib kelmoqda[8].

O‘zbekiston olimlari orasida M.Abdullayeva, R.Jo‘rayev va D.Tursunova kabilar respublikada oila institutining modernizatsiyasi, ayollar ijtimoiy faolligining ortishi, migratsiyaning oilaga ta’siri kabi jihatlarni chuqur tahlil qilgan. Jumladan, D.Tursunova o‘z tadqiqotlarida oilaviy qadriyatlarning avlodlararo uzviylikda barqaror saqlanishini, biroq urbanizatsiya va raqamli jamiyat ta’sirida yosh oilalarda bu qadriyatlarning zaiflashayotganini qayd etadi[1,4].

Yaqin tarixda nufuzli xalqaro tashkilotlar UNESCO (2019) va OECD (2021) [5,6] tomonidan chop etilgan hisobotlar oilaviy munosabatlardagi global tendensiyalarni tahlil qilgan. Ushbu hisobotlarda ko‘rsatilishicha, urbanizatsiya darajasining oshishi bilan bolalar sonining kamayishi, nikoh yoshining ortishi, oilaviy ajralishlar sonining ko‘payishi kuzatilmoqda. Bu holatlar barcha mintaqalarda bir xil emas, ammo ularning umumiyo yo‘nalishi – oilaning ijtimoiy institut sifatidagi shakli va mazmunining o‘zgarayotganidir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHЛИLI. Mazkur tadqiqotda oila institutining globallashuv va urbanizatsiya sharoitidagi transformatsiya jarayonlarini aniqlash va baholash maqsad qilingan. Tadqiqot sifatida aralash metodologiya – ya’ni, sifat (qualitative) va

miqdoriy (quantitative) usullarning uyg‘unligi asosida olib borildi. Bu yondashuv ijtimoiy-psixologik va sotsiologik holatlarni chuqur tahlil qilish imkonini berdi.

Empirik ma’lumotlar uch bosqichda yig‘ildi:

1. So‘rovnoma usuli orqali. 2023–2024-yillar davomida Toshkent, Samarqand va Termiz shaharlarida yashovchi 250 nafar respondent (turli yoshdagi erkak va ayollar) ishtirokida oila strukturasidagi o‘zgarishlar, qadriyatlar tizimidagi siljishlar, farzand tarbiyasi va mehnat migratsiyasi ta’siri bo‘yicha ma’lumotlar olindi.

2. Yarim tuzilgan intervyyu asosida 30 nafar ijtimoiy soha mutaxassislari (psixolog, sotsiolog, pedagog) bilan suhbatlar tashkil etilib, zamonaviy oilaviy muammolar va urban hayat tarzining ta’siri chuqur tahlil qilindi.

3. Tahliliy kuzatuv metodi orqali shaharlardagi oilalarning turmush tarziga oid ijtimoiy hodisalar (ajralishlar, nikoh yoshi, farzandlar soni) statistik manbalar asosida o‘rganildi.

MUHOKAMA. O’tkazilgan empirik tadqiqotlar natijalari oila institutining zamonaviy transformatsiyasi murakkab, ko‘p omilli va dinamik jarayon ekanini ko‘rsatmoqda. So‘rovnoma va intervyyu natijalariga asoslanib, globallashuv va urbanizatsiya sharoitida oilaviy model, qadriyatlar

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS).

1-jadval. Respondentlarning oilaviy modelga nisbatan ijtimoiy-psixologik pozitsiyalari (shahar va qishloq kesimida)

Oilaviy model	Shahar aholisi (n=125)	Qishloq aholisi (n=125)	Afzal ko‘rish sababi (shahar)	Afzal ko‘rish sababi (qishloq)
Ko‘p avlodli oila	15.2%	41.3%	Qarindoshchilik rishtalarining mustahkamligi, ijtimoiy qo‘llab-quvvat	Madaniy an’analarni saqlab qolish, uy xo‘jaligi samaradorligi
Yadro (kichik) oila	62.7%	44.5%	Mustaqillik, shaxsiy makon, ijtimoiy mas’uliyatning muvozanatlashuvi	Bozor iqtisodiyoti sharoitiga moslashuv, turmush soddaligi
Yolg‘iz yashovchi	12.5%	8.1%	Individualizm, professional erkinlik	Mehnat migratsiyasi oqibatida majburiy holat
Erkin (nikohsiz) birlik	9.6%	6.1%	Shaxsiy tanlov erkinligi, nikoh institutiga shubha bilan qarash	Madaniy nomuvofiqlik, jamoaviy norozilik tufayli kam uchraydi

Sharh: 1-jadval ko‘rsatkichlari asosida aytish mumkinki, oilaviy modelga bo‘lgan munosabat faqat demografik farqlar emas, balki ijtimoiy-madaniy xotira, iqtisodiy moslashuv darajasi va normativ qadriyatlar bilan belgilanadi. Urban aholisi mustaqillik va shaxsiy makonga bo‘lgan ehtiyojni yuqori qadrlagan bo‘lsa, qishloq respondentlari ko‘proq jamoaviylik va avlodlar uzviyligiga tayanmoqda. Shu bilan birga, “yolg‘iz

tizimi, rollar taqsimoti va tarbiyaviy strategiyalar sezilarli darajada o‘zgarayotganini aniqlash mumkin.

Birinchi navbatda, oila strukturasidagi o‘zgarishlar shahar va qishloq aholisi o‘rtasida turlicha namoyon bo‘layotgani kuzatildi. Urban respondentlar orasida yadro (kichik) oilani afzal ko‘rganlar soni sezilarli ustunlikka ega bo‘lib, bu holat shaharlardagi turmush sharoitining zichligi, ujoy muammolar, iqtisodiy mustaqillik va zamonaviy mehnat modeli bilan bog‘liqdir. Aksincha, qishloq hududlarida hali-hanuz ko‘p avlodli oilalarga nisbatan ijobjiy munosabat saqlanib qolmoqda. Bu esa an’anaviy qadriyatlarning ijtimoiy muhit bilan uzviy bog‘liqligini ko‘rsatadi (1-jadval).

Ikkinci muhim natija – oilaviy qadriyatlar tizimidagi siljishlardir. “Ota-onaga hurmat”, “oilabirdamligi” kabi klassik qadriyatlar ahamiyatini yo‘qotmagan bo‘lsa-da, ularga nisbatan ustuvorlik pasaygan. Ayni paytda “ayolning mustaqilligi” va “yoshlar qarorining ustuvorligi” kabi qadriyatlarning e’tirof etilishi ortib bormoqda. Bu holat zamonaviy jamiyatda individualizmning kuchaygani, gender rollarining qayta talqin etilayotgani va yangi avlod tomonidan muayyan ijtimoiy-chegaraviy erkinliklarga ehtiyoj ortayotganini ko‘rsatadi (2-jadval).

yashovchi” va “erkin birlik” modellarining ortib borayotgani jamiyatda klassik nikoh institutiga bo’lgan ishonchning susayishi, shuningdek, mehnat va axborot erkinligining kengayishi bilan izohlanadi.

2-jadval. Urbanizatsiya sharoitida qadriyatlar tizimidagi strukturaviy siljishlar (1990–2024 yillar qiyosida)

Qadriyatlar mezoni	1990-yillar boshi (%)	2024-yil holatiga ko’ra (%)	Siljish yo’nalishi	Izoh
Ota-onaga hurmat	94,3%	81,1%	Pasiayish	Ijtimoiy institutlar diversifikatsiyasi sababli avlodlararo yaqinlik zaiflashmoqda
Oila birdamligi	91,6%	76,8%	Pasiayish	Avtonomlik va migratsiya oqibatida oilaviy uyushqoqlik sustplashmoqda
Farzand tarbiyasiga e’tibor	89,2%	70,2%	Pasiayish	Tarbiya funksiyasi muassasalarga delegatsiyalarnamoqda
Ayolning iqtisodiy mustaqilligi	36,5%	59,4%	O’sish	Gender tengligi g’oyalari va iqtisodiy faoliy oshmoqda
Shaxsiy ustuvorligi	42,0%	67,1%	O’sish	Individualizatsiya kuchaygan, yoshlar ijtimoiy mustaqillikni afzal bilmoqda

Sharh: 2-jadvalda esa qadriyatlar tizimidagi chuqur strukturaviy siljishlarni aks ettiriladi. An’anaviy qadriyatlar – ota-onaga hurmat, oila birligi va farzand tarbiyasining ustuvorligi – sezilarli darajada pasaygan. Bunga sabab – ijtimoiy institutlar raqobatining kuchayishi, ya’ni tarbiya vazifalarining mакtabgacha ta’lim, mакtab va boshqa muassasalarga ko’chishi. Shu bilan birga, shaxsiy erkinlik va ayollar mustaqilligi ko’rsatkichlarining o’sishi gender rollari qayta talqin qilinayotganidan dalolat beradi.

XULOSA. Olib borilgan nazariy-amaliy tahlillar asosida aniqlanishicha, globallashuv va urbanizatsiya jarayonlari oila institutining nafaqat tashqi strukturaviy ko’rinishiga, balki uning ichki funksional komponentlariga, ijtimoiy-psixologik vazifalariga va me’yoriy qadriyatlar tizimiga ham sezilarli darajada transformatsion bosim o’tkazmoqda.

Mazkur holatlarni hisobga olgan holda, quyidagi yo’nalishlarni afzal deb baholash mumkin:

1. Oila institutini diversifikatsiyalashuv sharoitida qo’llab-quvvatlashga qaratilgan kompleks yondashuvlarni ishlab chiqish – zamonaviy oilaning turli modellarini inklyuziv tarzda aks ettiruvchi ijtimoiy siyosat shakllantirilishi maqsadga muvofiq.

2. Urban oilalarning psixologik mustahkamligini ta’minlovchi kommunikativ-madaniy mexanizmlarni rivojlantirish. Bu orqali shaxslararo muloqotni tiklash, tarbiya institutlarining uziyligini saqlash mumkin bo’ladi.

3. Ayollar va yoshlarning oilaviy qaror qabul qilishdagi ishtirokini qo’llab-quvvatlovchi gendersenzitiv mexanizmlarni takomillashtirish, bu yo’nalish oilada ijtimoiy adolat va mas’uliyat muvozanatini ta’minlaydi.

4. Oila qadriyatlari transformatsiyasini uzluksiz monitoring qilish, sababi ijtimoiy tadqiqotlar va statistik tahlillar asosida ilg’or strategiyalar ishlab chiqilishi zaruratga aylangan.

ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Jo’rayev R. Zamonaviy oila: ijtimoiy psixologiya va modernizatsiya. — Toshkent: Fan, 2018.
2. McDowell L. Working Bodies: Interactive Service Employment and Workplace Identities. — Oxford: Blackwell, 2010.
3. OECD. Society at a Glance 2021. — Paris: OECD Publishing, 2021.
4. Tursunova D. Urbanizatsiya va an’anaviy oila munosabatlari: O’zbek jamiyatidagi tendensiyalar. // Ilm va Taraqqiyot, 2022.
5. UNESCO. Families on the move. — Paris: UNESCO, 2017.
6. UNFPA. State of World Population Report. — New York: UNFPA, 2019.
7. Баудрийяр Ж. Символический обмен и смерть. — М.: Добросвет, 2000.
8. Бек У. Общество риска: на пути к другому модерну. — М.: Прогресс-Традиция, 2000.